




CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra
dastlabki ma'lumot*

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 441,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **19,0 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **304,8** mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi* **1 137,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,9 %**), uyushmagan savdo tovar aylanmasi esa **69,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **117,9 %**) tashkil etdi.

* Uyushmagan savdo tovar aylanmasini qo'shmagan holda

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, foizda



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **34,4 %** ulush bilan **495,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy sh.
495,9

Karmana t.
241,1

Xatirchi t.
162,4

Qiziltepa t.
157,9

Zarafshon sh.
142,2

Navbahor t.
67,2

Uchquduq t.
65,5

Nurota t.
65,5

Konimex t.
36,0


ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,6 %** ulush bilan **9,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Tomdi t.
9,2

UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 441,8** mlrd. so'mni va 2021- yilning mos davriga nisbatan **119,0 %** ni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	1 441,8	119,0	304,8	2,9 m	1 137,0	102,9
Navoiy sh.	495,9	150,6	230,5	2,6 m	265,4	110,0
Zarafshon sh.	142,2	112,3	6,3	178,9	135,9	110,4
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	241,1	109,8	48,7	8,9 m	192,5	89,8
Konimex	36,0	103,2	0,8	75,4	35,1	104,1
Qiziltepa	157,9	105,8	2,4	99,6	155,4	105,9
Navbahor	67,2	100,6	12,3	20,3 m	54,9	82,9
Nurota	64,4	104,7	1,6	1,9 m	62,9	103,5
Tomdi	9,2	103,0	0,1	135,1	9,2	102,8
Uchquduq	65,5	105,1	0,7	118,2	64,8	105,0
Xatirchi	162,4	106,5	1,4	34,9	161,0	108,5

2021- yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi o'sishining yuqori ko'rsatkichlari Karmana tumanida (**241,1** %), Navoiy (**150,6** %) va Zarafshon shaharlarida (**112,3** %) hamda Xatirchi (**106,5** %) tumanida qayd etildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar, foizda

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022- yilning yanvar-fevral oylarida **304,8** mlrd. so'mni, bu esa umumiy savdo hajmining **21,1** foiz ulushiga to'g'ri keldi.



18,3

20,2

46,5

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda

Navbahor t. 12,3
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

Karmana t. 48,7
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm


Navoiy sh. 230,5
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 137,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **2,9 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **74,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, foizda



Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

Xatirchi t. 161,0

Karmana t. 192,5

Navoiy sh. 265,4



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ulushga ega hududlar, foizda



14,2 


16,9 

23,3 



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tomdi (**99,2%**), Xatirchi (**99,1 %**), Uchquduq (**98,9 %**) va Qiziltepa (**98,5 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **21,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahrida (**46,5 %**), Karmana (**20,2 %**) va Navbahor (**18,3 %**) tumanlarida kuzatildi.



AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo Tovar aylanmasi **1 408,4** ming so'mni (2021- yilning mos davriga nisbatan **16,9** % ga oshdi) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Navoiy shahri (**3 332,8** ming so'm), Karmana tumani (**1 852,1** ming so'm) va Zarafshon shahri (**1 664,7** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Eng yuqori hajm, ming so'm

Navoiy sh. – 3 332,8

Karmana t. – 1 852,1

Zarafshon sh. – 1 664,7

Eng quyi hajm, ming so'm

Nurota t. – 679,6

Tomdi t.– 603,5

Navbahor t. – 580,7

	Hajm, ming so'm	2021- yilning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	1 408,4	116,9
Navoiy sh.	3 332,8	147,2
Zarafshon sh.	1 664,7	111,2
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	1 852,1	107,0
Konimex	985,2	101,5
Qiziltepa	1 017,1	104,1
Navbahor	580,7	98,9
Nurota	679,6	102,9
Tomdi	603,5	100,3
Uchquduq	1 724,2	103,8
Xatirchi	796,9	104,7



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,6 %** ni tashkil etib, **37,1 mlrd. so'mga** yetdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan **15,7 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **84,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mln. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mln. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	37 123,5	115,7	6 574,2	2,3 m	30 549,4	112,2
Navoiy sh.	12 097,7	101,3	653,1	39,6	11 444,6	119,2
Zarafshon sh.	6 518,0	118,5	1 837,9	149,8	4 680,1	117,3
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	4 140,9	102,7	33,5	88,0	4 107,4	110,2
Konimex	686,1	110,3	-	-	686,1	118,2
Qiziltepa	2 312,3	105,6	-	-	2 312,3	113,2
Navbahor	6 646,4	2,3 m	4 049,7	-	2 596,7	95,5
Nurota	746,0	110,1	-	-	746,0	118,0
Tomdi	147,4	107,4	-	-	147,4	115,0
Uchquduq	1 053,8	68,0	-	-	1 053,8	72,9
Xatirchi	2 775,0	109,7	-	-	2 775,0	117,5

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2021- yil
yanvar-fevral

2022- yil
yanvar-fevral



5,4 %



1,8 %



94,7 %



98,2 %

Nodavlat mulk

Davlat mulki

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **5,0 %** dan **2,0 %** ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **17,7** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **112,5 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **17,3** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**98,0 %**) hamda **0,4** mlrd. so'm (**2,0 %**) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	37,1	100,0	36,4	98,2	0,7	1,8
Navoiy sh.	12,1	32,6	11,4	94,4	0,7	5,6
Zarafshon sh.	6,5	17,6	6,5	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>	0,0	0,0	0,0			
Karmana	4,1	11,2	4,1	100,0	-	-
Konimex	0,7	1,8	0,7	100,0	-	-
Qiziltepa	2,3	6,2	2,3	100,0	-	-
Navbahor	6,6	17,9	6,6	100,0	-	-
Nurota	0,7	2,0	0,7	100,0	-	-
Tomdi	0,1	0,4	0,1	100,0	-	-
Uchquduq	1,1	2,8	1,1	100,0	-	-
Xatirchi	2,8	7,5	2,8	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **216,0** mlrd. so'mni, 2021- yilning mos davriga nisbatan **106,7** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, yirik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasi **41,2** mlrd. so'mni, 2021- yilning mos davriga nisbatan **140,7** % ni tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

216,0 mlrd. so'm, 100,0 %

Ulgurji savdo



**41,2 mlrd. so'm,
19,1 %**

Yirik korxonalar




**174,8 mlrd. so'm,
80,9 %**

Mikrofirma va kichik korxonalar

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari Navoiy shahrida (**119,0 %**), Zarafshon shahrida (**110,2 %**) va Qiziltepa (**109,2 %**) tumanida kuzatildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	216,0	106,7	41,2	140,7	174,8	101,0
Navoiy sh.	112,3	119,0	34,6	125,9	77,7	116,2
Zarafshon sh.	8,7	110,2	-	-	8,7	110,2
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	63,0	105,0	6,4	4,8 m	56,7	96,5
Konimex	0,9	76,6	0,1	26,9	0,8	107,6
Qiziltepa	16,0	109,2	-	-	16,0	109,2
Navbahor	3,3	85,7	0,1	-	3,2	83,5
Nurota	3,1	107,6	-	-	3,1	107,6
Tomdi	0,4	23,5	-	-	0,4	23,5
Uchquduq	1,9	38,0	-	-	1,9	38,0
Xatirchi	6,4	58,1	-	-	6,4	58,1

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'ngi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rnini pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,2 %** ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **216,0** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi **215,7** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **0,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Davlat mulki, 0,2 %

**2022- yil
yanvar-
fevral**

Nodavlat mulk, 99,8 %

Davlat mulki, 0,2 %

**2021- yil
yanvar-
fevral**

Nodavlat mulk, 99,8 %



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkiga tegishlisi faqatgina Karmana tumanida (**0,5 %**), saqlanib qolinganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.